**For citation:** Gadayev A.G., Rizaev J.A., Khusinova Sh.A. COMPARATIVE STUDY OF ADHERENCE TO TREATMENT AND RISK FACTORS AMONG THE RURAL HEART-VASCULAR AND RESPIRATORY SYSTEM DISEASES OF THE RURAL POPULATION OF VILLAGE, DISTRICT, AND CITY. (IN THE EXAMPLE OF SAMARKAND REGION). Journal of cardiorespiratory research , vol.6 , issue 4.



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2025/6/4/7>

## **АННОТАЦИЯ**

В статье на примере распространенных сердечно-сосудистых и респираторных заболеваний в Самаркандской области проведено сравнительное изучение приверженности к лечению и факторов риска среди населения, проживающего в сельской местности, районных центрах и городах. Приверженность к лечению оценивалась с помощью широко используемого в мире опросника Мориски-Грина. Выявлены низкая приверженность пациентов к лечению и причины несоблюдения назначений. Полученные результаты показали, что потребление фруктов и овощей при изученных хронических заболеваниях снижается в сельских, районных и городских условиях. Установлено, что среди пациентов, проживающих во всех исследованных регионах, вредные привычки распространены практически в одинаковой степени.

**Ключевые слова:** сердечно-сосудистые заболевания, система здравоохранения, артериальная гипертензия, ишемическая болезнь сердца, хроническая сердечная недостаточность, бронхиальная астма, хроническая обструктивная болезнь легких, приверженность к лечению.

**Gadayev Abdugaffor Gadayevich**

DSc, professor, Department of Internal Medicine,  
Family Medicine No. 2, Tashkent State Medical University  
Tashkent, Uzbekistan

**Rizaev Jasur Alimdzhonovich**

DSc, professor, Rector of Samarkand State Medical University,  
Samarkand, Uzbekistan

**Khusinova Shaira Akbarovna**

PhD, Head of the Department of Family and Preventive  
Medicine, Public Health, Health Care Management,  
Samarkand State Medical University,  
Samarkand, Uzbekistan

**COMPARATIVE STUDY OF ADHERENCE TO TREATMENT AND RISK FACTORS AMONG THE RURAL HEART-VASCULAR AND RESPIRATORY SYSTEM DISEASES OF THE RURAL POPULATION OF VILLAGE, DISTRICT, AND CITY. (IN THE EXAMPLE OF SAMARKAND REGION)**

## ANNOTATION

The article comparatively examines treatment adherence and risk factors among the population living in rural areas, district centers, and cities, using the example of prevalent cardiovascular and respiratory diseases in the Samarqand region. Adherence to treatment was assessed using the Morisky-Green questionnaire, widely used in the world. Patients' low adherence to treatment and reasons for non-compliance with prescriptions were identified. The obtained results showed that the consumption of fruits and vegetables in the studied chronic diseases decreases in rural, district, and urban conditions. It was established that among patients living in all studied regions, bad habits are spread to almost the same extent.

**Keywords:** cardiovascular diseases, healthcare system, arterial hypertension, coronary heart disease, chronic heart failure, bronchial asthma, chronic obstructive pulmonary disease, adherence to treatment.

**Gadayev Abdugaffor Gadayevich**

t.f.d., 2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasasi professori,  
Toshkent davlat tibbiyot universiteti,  
Toshkent, O'zbekiston

**Rizaev Jasur Alimjanovich**

t.f.d., professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori,  
Samarqand, O'zbekiston

**Xusinova Shoir Akbarovna**

t.f.n., dotsent, oilaviy va preventiv tibbiyot,  
jamoa salomatligi, sog'liqni saqlash boshqaruvi kafedrasasi mudiri,  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,  
Samarqand, O'zbekiston

**SURUNKALI YURAK-QON TOMIR VA NAFAS TIZIMI KASALLIKLARI MAVJUD QISHLOQ, TUMAN VA SHAHAR  
AHOLISI ORASIDA DAVOLANISHGA MOYILLIK VA XAVF OMILLARINI O'ZARO SOLISHTIRMA O'RGANISH  
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**ANNOTATSIIYA**

Maqolada keng tarqalgan yurak-qon tomir va nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha Samarqand viloyati misolida qishloq, tuman va shahar hududida yashovchi aholi orasida davolanishga bo'lgan moyillik va xavf omillari o'zaro solishtirilib o'rganilgan. Davolanishga bo'lgan moyillik jahonda keng qo'llaniladigan Morisky-Grin so'rovnoma yordamida baholangan. Bemorning davolanishga bo'lgan past moyilligi, ko'rsatmalarga rioya qilmaslik sabablari keltirilgan. Olingan natijalar o'rganilgan surunkali kasalliklarda meva-sabzavot iste'moli qishloq, tuman va shahar sharoitida kamayib borishini ko'rsatgan. O'rganilgan barcha hududlarda yashovchi bemorlar orasida zararli odatlar deyarli bir xil darajada keng tarqalganligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** yurak-qon tomir kasalliklari, sog'liqni saqlash tizimi, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi, bronxial astma, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi, davolanishga bo'lgan moyillik.

**Kirish.** Aholi orasida keng tarqalgan va muntazam muolajalar o'tkazilishi zarur bo'lgan surunkali kasalliklarning salbiy oqibatlar bilan yakunlanishining ko'p sonli sabablari orasida bemorlarning davolanishga bo'lgan moyilliklari muhim ahamiyatga ega. Lekin ushbu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kam va Respublikamizdagi tibbiyotga oid ilmiy manbalarda deyarli uchramaydi.

Davolanishga moyillik deganda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari tavsiyalariga ko'ra "bemorlarning shifokor tomonidan buyurilgan dori vositalarini muntazam ravishda, kerakli doza va oraliqlarda qabul qilishlari" nazarda tutiladi. Uning samaradorligini oshirish bemorlar salomatligiga alohida tibbiy muolajalarni takomillashtirishdan ko'ra ko'proq foyda berishi ko'rsatilgan. Davolanishga moyillik – bu murakkab jarayon bo'lib, u bir qator o'zaro ta'sir qiluvchi omillarga, jumladan, bemor-shifokor munosabatlariga, sog'liqni saqlash tizimiga, dori vositalari bilan o'tkaziladigan muolajalarga, mavjud kasallikning kechish xususiyatlariga hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq [7,8].

Ushbu muammoning muhim ahamiyatga ega ekanligi ilk marotaba Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2003-yilda e'lon qilingan bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarning uzoq muddatli davolanishga moyilligi o'rtacha 50% atrofida, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bundan ham past ekani ko'rsatilgan [1]. Shunga qaramay, bemorlarning davolanishga moyilliklari va unga ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish boshlanganiga hamda bu borada maqolalar chop etilganiga yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. Keyingi davrda esa ushbu masalaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni tobora oshib bormoqda.

Hozirgi vaqtda shifokor tavsiyalariga amal qilmaslik yoki ularni to'liq bajarmaslik barcha kasalliklar uchun isbotlangan xavf omili hisoblanadi. Chunki bunday holat muolajalar samaradorligini kamaytiradi, xarajatlarni ko'paytiradi, turli asoratlar rivojlanish ehtimolini oshiradi, kasallik oqibati va umr davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [1,3]. Ayniqsa uzoq muddatli yoki umrbodiy davoga muhtoj surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar uchun bu muammo alohida ahamiyat kasb etadi [1,5,6].

O'tkazilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda davolanishga moyillikning o'ziga xos jihatlari mavjudligi aniqlangan. Avvalo, uni ifodalashda turli atamalardan foydalanilishi aniqlangan va bu holat uning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [9]. Ikkinchidan, unga turli omillar ta'sir ko'rsatadi, bu esa muammoni hal qilishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, hozircha moyillikni oshirishning mukammal usullari mavjud emas.

Bemorlarning davolanishga moyilliklarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarning dastlabkilarida "compliance" (ingliz tilidan — "muvofiqlik") atamasi ishlatilgan, biroq hozirgi kunda bu so'z kamroq qo'llaniladi. Keyinchalik "shifokor-bemor" modelida "concordance" ("kelishuv" yoki "o'zaro tushunish") atamasi ishlatila boshlandi. Hozir esa yuqoridagi ikki so'zni siqib chiqargan "adherence" ("moyillik") atamasi keng qo'llanilmoqda [2].

Shuningdek, shifokor tavsiyalarini ongli ravishda bajarmaslik, bemorning shifokor ko'rsatmalarini bajarishga tayyorligi yoki qabulga kelishdan oldin ularni bajarish holatlari ham ushbu tushunchaga kiradi [3,4,5].

Davolanishga moyillikni aniqlashda hozircha "oltin standart" mavjud emas. Tavsiya etilgan usullarning birortasi ham mutlaq ishonchli emas. Ular shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Bevosita usullarga biologik ajralmalarda (qon, so'lak, siydik va boshqalar) tavsiya etilgan dori vositalari yoki ularning metabolitlarini aniqlash kiradi. Ammo bu usullar murakkab, qimmat va axloqiy-huquqiy jihatdan murakkab bo'lib, bemorning roziligini talab qiladi. Shu sababli ular asosan ilmiy tadqiqotlarda, bemor roziligi olingach, qo'llaniladi.

Bilvosita usullarga esa bemorning so'rovnomalarini to'ldirishi, o'zini o'zi nazorat qilish kundaligi yuritishi, ishlatilgan yoki sotib olingan dorilarni sanash, turli fiziologik markerlarni baholash, preparat qutisiga elektron chiplar o'rnatish yoki oshqozonda faollashuvchi mikrosensordan foydalanish kiradi. So'nggi usullar aniqroq natija bersa ham, ularning tannarhi yuqori bo'lgani sababli kundalik amaliyotda cheklangan [9,10].

Amaliyotda hozir Moriski-Grin so'rovnosi, Moriski davolanishga moyillikni baholash so'rovnosi, Martin-Bauarte-Grin so'rovnosi va boshqa variantlardan foydalaniladi. Har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega [9].

Biz o'rganayotgan arterial gipertenziya (GK), yurak ishemik kasalligi (YUIK), ularga bog'liq surunkali yurak yetishmovchiligi (SYuYe), shuningdek, nafas a'zolari kasalliklari — o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi (O'SOK) va bronxial astma (BA) butun dunyoda, shu jumladan Respublikamizda ham keng tarqalgan. Biroq ushbu kasalliklarda bemorlarning davolanishga bo'lgan moyilliklari, uni pasaytiruvchi sabablar va birlamchi tizim shifokorlari tomonidan tasdiqlangan standart davolash usullariga amal qilish darajasi yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli bu masalalarni yorituvchi tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Samarqand viloyatida qishloq, tuman va shahar aholisi orasida yurak-qon tomir va nafas tizimi kasalliklarida davolanishga bo'lgan moyillik hamda xavf omillarini o'zaro solishtirma tahlil qilish.

**Tadqiqot materiali va uslublari:** Tadqiqotga Samarqand viloyatining turli hududlarida (qishloq, tuman va shahar) yashovchi

arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi, bronxial astma va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligiga chalingan 3049 nafar bemor jalb etildi. Ularning o'rtacha yoshi  $58,3 \pm 4,22$  yosh bo'lib, 1369 nafari erkak va 1680 nafari ayollar edi.

Qishloq hududida kuzatuvga olinganlar orasida gipertenziya kasalligi — 211, yurak ishemik kasalligi — 204, surunkali yurak yetishmovchiligi — 200, bronxial astma — 210, o'pkaning obstruktiv kasalligi — 218 nafari tashkil etdi. Tuman markazida yashovchi bemorlar orasida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 203, 200, 200, 209 va 200 nafari tashkil etdi. Shaharda esa mos ravishda 201, 192, 192, 209 va 200 nafar bemor kuzatildi.

Belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq, birlamchi tibbiy-sanitariya yordam muassasalari sharoitida keng tarqalgan surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarning davolanishga bo'lgan moyilliklari Moriski-Grin so'rovnosi (MMAS-8) yordamida baholandi. Quyidagi 1-jadvalda dunyo bo'yicha keng qo'llanishi tavsiya etilgan va umumtan olingan Moriski-Grin so'rovnosi keltirilgan.


1-jadval.

### Bemorlarning davolanishga moyilligini aniqlash uchun qo'llaniladigan Moriski-Grin so'rovnosi.

| №                                                                                      | Savollar                                                                                                                                                                                   | Javob, ball |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|------|
|                                                                                        |                                                                                                                                                                                            | Ha          | Yo'q |
| 1                                                                                      | Siz dori vositalarini qabul qilishni unutgan holatlar bo'ladimi?                                                                                                                           | 0           | 1    |
| 2                                                                                      | So'nggi 2 hafta ichida siz dori vositalarini qabul qilmagan kunlar bo'ldimi?                                                                                                               | 0           | 1    |
| 3                                                                                      | Mabodo navbatdagi dori vositasini qabul qilgandan so'ng o'zingizni yomon his qilsangiz, vrach bilan kelishmasdan dori dozasi kamaytirgan yoki umuman qabul qilmagan holatlar bo'ladimi?    | 0           | 1    |
| 4                                                                                      | Agar uyda uzoq muddat safarda bo'lsangiz, qabul qilayotgan doringizni o'zingiz bilan olishni unutgan holatlar bo'ladimi?                                                                   | 0           | 1    |
| 5                                                                                      | Tavsiya etilgan dorilarni kecha qabul qilmadingizmi?                                                                                                                                       | 0           | 1    |
| 6                                                                                      | Mabodo o'zingizni yaxshi his qilsangiz yoki tahlillar (analizlar) natijalari ijobiy bo'lsa, dori vositasini qabul qilmagan holatlar bo'ladimi?                                             | 0           | 1    |
| 7                                                                                      | Shifokor tavsiya etgan sxemada dori vositalarini qabul qilish siz uchun murakkabmi?                                                                                                        | 0           | 1    |
| 8                                                                                      | avsiya etilgan dorilarni o'z vaqtida qabul qilish tez-tez murakkablik tug'diradimi?<br>0 ball – doimo, 1 ball – deyarli doimo, 2 ball – ba'zan, 3 ball – kamdan-kam, 4 ball – hech qachon. | 0-4         |      |
| Izoh: 8 ball = yuqori moyillik, 6–7 ball = o'rtacha moyillik, <6 ball = past moyillik. |                                                                                                                                                                                            |             |      |

Tadqiqot natijalarining tahlili va muhokamasi. Surunkali kasalliklarda umumqabul qilingan va tavsiya etilgan muolajalarni bemorlar tomonidan to'liq qabul qilinmasligi, ya'ni davolanishga bo'lgan moyillikning pastligi yoki ularni shifokorlar tomonidan standartlar bo'yicha buyurilmasligi hozirgi vaqtda tibbiyotning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu halqaning barcha

bo'g'inlaridagi buzilishlarning katta ahamiyatga egaligini inobatga olib, mazkur bobda o'rganilgan hududlarda yashovchi bemorlarning davolanishga bo'lgan moyilliklarini Moriski-Grin so'rovnosi yordamida solishtirma o'rgandik va olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Kuzatuvdagi bemorlarda Moriski-Grin so'rovnosi yordamida aniqlangan davolanishga moyillik ko'rsatkichlari (ball).

Rasmda keltirilganidek, gipertoniya kasalligi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, qishloq aholisi orasida davolanishga bo'lgan moyillik  $6,2 \pm 0,25$ , tuman va shahar aholisi orasida esa

ko'rsatkich mos ravishda o'rtacha  $6,4 \pm 0,3$  hamda  $6,0 \pm 0,26$  ballni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar uchala hudud orasida o'zaro solishtirib o'rganilganda ishonchli farq ( $p > 0,05$ ) aniqlanmadi. Shu

o'rinda barcha hududlarda ballar davolanishga bo'lgan moyillikning o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatdi.

Yurak ishemik kasalligi mavjud bemorlarda so'rovnoma yordamida aniqlangan davolanishga bo'lgan moyillik qishloq, tuman va shahar aholisi orasida mos ravishda  $5.7 \pm 0.3$ ,  $5.9 \pm 0.3$  hamda  $6.2 \pm 0.4$  ballga teng bo'ldi. Ular o'zaro solishtirma tahlil qilinganda, davolanishga moyillik qishloq va tumanlar orasida 3% ga, birinchi hududning shahar bilan farqi 8% ga, tumanlar va shaharlar orasidagi farq esa 5% ga teng bo'ldi. Ko'rsatkichlarda ishonchli farq ( $p > 0.05$ ) kuzatilmagan bo'lsa-da, shaharda yashovchi bemorlarda natijalar nisbatan yuqoriroq ekanligi qayd etildi.

Surunkali yurak yetishmovchiligi rivojlangan bemorlar guruhida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, qishloq aholisida davolanishga bo'lgan moyillik tuman va shahar aholisiga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra, qishloq aholisida  $6.6 \pm 0.3$ , tuman va shahar aholisi orasida esa  $6.0 \pm 0.2$  hamda  $6.0 \pm 0.25$  ball qayd etildi. Garchi qishloq aholisi orasida davolanishga moyillik qolgan hududlarga nisbatan 9% ga yuqori bo'lsa-da, ishonchli farq ( $p > 0.05$ ) aniqlanmadi.

Bronxial astma mavjud bemorlarda o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, qishloq, tuman va shahar kesimida davolanishga bo'lgan moyillikning ortib borishi kuzatildi. Ushbu natijalar mos ravishda  $5.6 \pm 0.3$ ,  $6.4 \pm 0.2$  va  $6.6 \pm 0.3$  ballni tashkil etdi. Olingan natijalar o'zaro solishtirilganda, bronxial astma kasalligida davolanishga bo'lgan moyillik shahar aholisida qishloqdagilarga nisbatan yuqoriligi ishonchli ( $p < 0.05$ ) farq bilan ajralib turdi. Buni shahar sharoitida turli salbiy omillar ta'sirida kasallik xurujlarining tez-tez kuzatilishi, davolanishga bo'lgan moyillikning oshishiga olib kelishi bilan izohlash mumkin.

O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, davolanishga bo'lgan moyillik qishloq aholisida  $6.2 \pm 0.2$ , tumanda  $6.5 \pm 0.2$  va shaharda  $6.4 \pm 0.3$  ballga teng bo'ldi. Ular o'zaro solishtirib o'rganilganda, ishonchli farq ( $p > 0.05$ ) aniqlanmadi.


Moriski-Grin so'rovnomasi natijalariga asosanib, Samarqand viloyati misolida qishloq, tuman va shahar aholisi orasida yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan bemorlarda davolanishga bo'lgan

moyillik o'rta va undan past darajada ekanligi qayd etildi. Shu o'rinda, qishloqlarda yashovchi aholi orasida yurak ishemik kasalligi va bronxial astma bilan og'riqan bemorlarda davolanishga bo'lgan moyillik past darajada ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Aksincha, nafas tizimi kasalliklarida davolanishga bo'lgan moyillik tuman markazlari va shaharlarda qishloq hududlariga nisbatan biroz yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha hududlar orasida ishonchli farq aniqlanmagan bo'lsa ham (bundan bronxial astma mustasno), barcha hollarda bemorlarning davolanishga bo'lgan moyilliklari o'rtacha darajada ekanligi qayd etildi. Tabiiyki, bunday holat mavjud kasalliklarning tez-tez qo'zg'alishiga, asoratlari rivojlanishiga, bemorlarning shifoxonaga qayta murojaatlari soni va davolanish kunlarining ortishiga, natijada muolajalar tannarxining keskin oshishiga olib keladi. Shu sababli, davolanishga bo'lgan moyillikni oshirish yo'nalishida ilmiy kuzatuvlarni jadallashtirish hamda bemorlar va shifokorlar uchun qulay tavsiyalar ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, davolanishga bo'lgan moyillikka qator tashqi, ichki, boshqarib bo'ladigan va boshqarib bo'lmaydigan omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni o'rganish va bartaraf etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu nuqtai nazardan kuzatuvda bo'lgan barcha bemorlarning davolanishga bo'lgan moyilligiga ta'sir etuvchi ba'zi omillar o'zaro solishtirma o'rganildi. Dastlab bemorlarda hududlar o'rtasida meva-sabzavot iste'molini solishtirma baholadik va olingan natijalar 2-rasmida keltirilgan.

Qishloq sharoitida bemorlarda kunlik sabzavot iste'moli gipertoniya kasalligida  $316 \pm 32.6$  g, yurak ishemik kasalligida  $299.5 \pm 28.6$  g, surunkali yurak yetishmovchiligida  $264 \pm 28.9$  g, bronxial astmada  $322.5 \pm 21.7$  g va o'pkaning obstruktiv kasalligida  $330.6 \pm 32.4$  g ga teng bo'ldi. Tuman aholisi orasida ushbu ko'rsatkich o'rganilgan kasalliklarga mos ravishda  $307.6 \pm 20.4$  g,  $305.8 \pm 24.5$  g,  $294.4 \pm 24.7$  g,  $303 \pm 32.4$  g va  $294.8 \pm 30.7$  g ni tashkil etdi. Shaharda meva va sabzavot iste'moli tadqiqotdagi xastaliklarga chalingan bemorlarda mos ravishda  $295.7 \pm 21.5$  g,  $287.8 \pm 22.1$  g,  $295.8 \pm 21.8$  g,  $231.3 \pm 28.8$  g va  $284 \pm 27.2$  g ekanligi aniqlandi.



2- Rasm. Qishloq, tuman va shahar aholisi orasida yurak-qon tomir va nafas tizimi kasalliklarida meva-sabzavot iste'molining o'zaro solishtirma tahlili (gramm).

Rasmida keltirilganidek, meva-sabzavot iste'moli gipertoniya kasalligida hududlar bo'yicha o'rganilganda eng katta farq qishloq va shahar aholisi orasida kuzatilib, shaharda yashovchi bemorlar 6,4 % kam iste'mol qilishi aniqlandi. Yurak ishemik kasalligiga chalingan bemorlarda ham hududlar orasida ishonchli farq aniqlanmagan bo'lsa-da, barcha holatlarda meva-sabzavot iste'moli o'rtacha 297,4 grammni tashkil etdi, bu esa Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlardan 25,6 % ga kamdir.

Surunkali yurak yetishmovchiligida qishloq, tuman va shahar ketma-ketligida meva-sabzavot iste'moli ( $264 \pm 28,9$  g.,  $294,4 \pm 24,7$  g.

va  $295,8 \pm 21,8$  g.) ortib borish moyilligi aniqlangan bo'lsa-da, o'rtacha me'yoriy ko'rsatkichdan 28,8 % ga kam bo'ldi. Bronxial astma kasalligida meva-sabzavot iste'moli qishloqdan shaharga o'tganda keskin kamaygani (mos ravishda  $322,5 \pm 21,7$  g. va  $231,3 \pm 28,8$  g.) kuzatildi va qishloqda istiqomat qiluvchilar shaharliklarga nisbatan ishonchli darajada ko'proq iste'mol qilishi ( $p < 0,05$ ) qayd etildi.


O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligida ham hududlar orasida, xususan, qishloq va shahar aholisi o'rtasida katta farq (46 g.) kuzatilgan bo'lsa-da, u ishonchli emas edi.

Olingan natijalar o'rganilgan surunkali, ayniqsa nafas a'zolari tizimi kasalliklarida shahar sharoitida meva-sabzavot iste'moli kamayib borishini ko'rsatdi. Tadqiqotda o'rganilgan barcha kasalliklarga chalingan bemorlarning o'rtacha meva-sabzavot iste'moli Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalarida keltirilgan me'yorlardan ishonchli darajada ( $p < 0,05$ ) past ekani aniqlandi.

Ma'lumki, umum qabul qilingan va ko'p sonli kuzatuvlarda o'z isbotini topgan ma'lum tartibda (nonushta, tushlik va kechki ovqat)

taom iste'mol qilish inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli biz o'z kuzatuvimizda Samarqand shahri, tumani va qishloqlarida gipertoniya kasalligi, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi, bronxial astma hamda o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi aniqlangan va kuzatuvda bo'lgan bemorlarda ovqatlanish tartibini solishtirma o'rgandik. Olingan natijalar 3-rasmda keltirilgan.


**3-rasm. Qishloq, tuman va shahar aholisi orasida yurak-qon tomir va nafas tizimi kasalliklarida ovqatlanish tartibining o'zaro solishtirma tahlili (%).**



Rasmda keltirilganidek, hududlar orasida bir-biridan ishonchli farq aniqlanmagan bo'lsa ham, barcha holatlarda 50% dan kam bemorlar ratsional ovqatlanish tartibiga rioya qilmaganliklari aniqlandi. Afsuski, bunday holat respublikamizda istiqomat qiluvchi aholi urf-odatlar va xalqimiz mentaliteti bilan bog'liq. Xususan, nahorgi oshlar, kechki bazmlar va aksariyat hollarda ertalab hamda tushda emas, balki

kechqurungi ovqatlanishning yetakchi o'rin tutishi bunga sabab bo'lmoqda.


Shuningdek, kuzatuvdagi bemorlarda zararli odatlardan — alkogol suiste'mol qilish, sigaret va nosvoy chekishni ham qishloq, tuman hamda shahar hududlarida o'zaro solishtirma o'rganildi. Olingan natijalar 4-rasmda keltirilgan.



**4-rasm. Qishloq, tuman va shahar aholisi orasida yurak-qon tomir va nafas tizimi kasalliklarida zararli odatlarning o'zaro solishtirma tahlili.**

Rasmda keltirilganidek, alkogol suistemol qilish qishloqda 11,46%, tumanda 11,26% va shaharda 21,62% bemorlarda aniqlandi. Shaharda yashovchi bemorlar qishloq va tumanga nisbatan mos ravishda 10,16% ( $\chi^2=2,94$ ,  $p=0,087$ ) va 10,36% ( $\chi^2=3,72$ ,  $p=0,05$ ) ko'p alkogol suistemol qilishlari qayd etildi. Sigaret chekish shahar aholisi orasida 12,07% bemorlarda kuzatildi va qishloqqa nisbatan 4,17% ( $\chi^2=1,33$ ,  $p=0,249$ ) hamda tumanga nisbatan 3,7% ( $\chi^2=0,817$ ,  $p=0,367$ ) ga yuqori bo'lsa

ham, farqlar ishonchli bo'lmadi. Nosvoy chekish qishloqda 15,7%, tumanda 16,5% va shaharda 14,6% bemorlarda aniqlandi. Garchi tuman markazida yashovchi aholida ushbu ko'rsatkich biroz yuqori bo'lgan bo'lsa ham, ular orasida ishonchli farq kuzatilmadi. Barcha zararli odatlar yig'indisi o'rganilganda shaharda yashovchilarda ko'rsatkich 48,29%, tuman va qishloqda yashovchilarda mos ravishda 36,06% va 35% ni tashkil etdi (5-rasm).



5-rasm. Samarqand viloyatida qishloq, tuman va shahar aholisi orasida barcha O'tkazilgan zararli odatlarning uchrash darajasi (%).

**Xulosa.** tahlil kuzatuvimizda bo'lgan surunkali nafas a'zolari tizimi kasalliklarida shahar sharoitida meva-sabzavot iste'moli kamayib borishini ko'rsatdi. Bemorlar orasida barcha hududlarda tartibsiz ovqatlanish holatlari yuqori ekanligi tasdiqlandi. Yuqorida keltirganimizdek, ushbu salbiy holatni respublikamizda istiqomat qiluvchi aholi urf-odatlar va xalqimiz mentaliteti bilan bog'liq deb hisoblash mumkin. Xususan, nahorgi oshlar, kechg'i bazmlar va aksariyat hollarda ertalab hamda tushda emas, balki kechqurungi ovqatlanishning yetakchi o'rin tutishi bunga sabab bo'lmoqda. Binobarin, shunday ekan ushbu yo'nalishda barcha shifokorlar va eng

avvalo oilaviy vrachlar keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borishlari lozim.

O'rganilgan zararli odatlar o'zaro solishtirilganda ahvol yanada ayanchli ekanligi kuzatildi. Qishloq va tumanlarda istiqomat qiluvchi asosiy nafas va yurak qon-tomir tizimi kasalliklari mavjud bemorlarning o'rtacha uchdan birida zararli odatlar mavjudligi, shaharda yashovchilarda esa sal kam 50 foizida spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishi, sigaret va nosvoy chekishi aniqlandi. Bu raqamlar o'ta tashvishli bir hol bo'lib, bemorlar orasida nafaqat davolanishga bo'lgan moyillikni kuchaytirish, balki zararli odatlarning salbiy ta'siri to'g'risidagi tushuntirish ishlarini shifokorlar odatiy tusga aylantirishi zarur.

#### Список литературы/References/Iqtiboslar:

1. Chowdhury R, Khan H, Heydon E, et al. Adherence to cardiovascular therapy: a metaanalysis of prevalence and clinical consequences. Eur Heart J 2013; 34: 2940-8.
2. Cramer JA, Roy A, Burrell A, et al. Medication compliance and persistence terminology and definition. Value in Health, 2008, 11(1): 44-7.
3. Ho PM, Bryson CL, Rumsfeld JS. Medication adherence. Its importance in cardiovascular outcomes. Circulation 2009; 119: 3028-35.
4. Levina IL. On the term "adherence (to) treatment". Bulletin of the Kuzbass scientific centre. 2013; 17: 51-3.
5. Pruijm M, Schneider M-P, Burnier M. Patient adherence and the pharmacological treatment of arterial hypertension. ESH scientific letter, 2010; 11 (7) available at [www.viamedical.pl](http://www.viamedical.pl).
6. Van Dulmen S, Sluijs E, van Dijk L, et al. Patient adherence to medical treatment: a review of reviews. BMC Health Service Research, 2007; 7: 55.
7. Warren JR, Falster MO, Fox D, et al. Factors influencing adherence in long-term use of statin. Farmacoepidemiology and drug safety. 2013 Published online: [wileyonlinelibrary.com](http://wileyonlinelibrary.com) DOI: 10.1002/pds.3526.
8. World Health Organization. Adherence to long-term therapies: evidence for action. WHO Library Cataloguing-in-Publication Data, Geneva, WHO 2003; 211 pp.
9. Приверженность к лечению сердечно-сосудистых заболеваний: вопросы и ответы. Сушинский В.Э. Медицинские Новости №3 2020. 36-39 с.
10. Приверженность лечению: современный взгляд на знакомую проблему. Лукина Ю. В., Кутишенко Н. П., Марцевич С. Ю. Кардиоваскулярная терапия и профилактика, 2017; 16(1) 91-95 с.
11. Хусинова Ш. А., Нармухамедова Н. А. Роль скрининга в работе врачей общей практики //Proceedings of the 4th International Scientific and Practical Conference «Scientific Horizon in the Context of Social Crises»(June 6-8, 2020). Tokyo, Japan: Otsuki Press. – 2020. – С. 219-223.
12. Аблакулова М. Х., Хусинова Ш. А., Юлдашова Н. Э. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА В ГОРОДСКОЙ НЕОРГАНИЗОВАННОЙ ПОПУЛЯЦИИ ГОРОДА САМАРКАНДА //Journal of cardiorespiratory research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 23-25.
13. Хусинова, Ш. А., Н. А. Нармухамедова, and Н. Э. Юлдашова. "СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ НЕИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ: Хусинова ША, Нармухамедова НА, Юлдашова НЭ." Лучшие интеллектуальные исследования 22.2 (2024): 70-76.
14. Akbarovna, Khusinova Shoir, and Narmukhamedova Nazira Azizovna. "Increasing the Adherence of Patients with Arterial Hypertension to Treatment." NATURALISTA CAMPANO 28.1 (2024): 3043-3047.